

O'ZGA TILLI GURUHLARDA O'ZBEK TILINI LUG'ATLAR YORDAMIDA O'RGATISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Rahimova Maktuba Iqboljonovna

Namangan Davlat Universiteti 2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada o'zga tilli guruhlarda o'zbek tilini o'rgatishning o'ziga xos jihatlari haqida ma'lumot beriladi. O'zbek tilini o'qitishning asosiy tamoyil va jihatlarini e'tiborga olgan holda unda lug'atlar bilan ishslash ko'nikmasini shakllantirishga alohida ahamiyat berish kerakligi va uning o'ziga xos jihatlari izohlab o'tiladi.

Kalit so'zlar: uzviylik, metod, interfaol o'yin, lug'at, didaktik o'yin, diktant, savodxonlik.

ABSTRACT

The article provides information about the specific aspects of teaching the Uzbek language in foreign language groups. Taking into the main principles and aspects of learning the Uzbek language, it is necessary to give special importance to the formation of the skill of working with dictionaries and its specific aspects are explained.

Key words: unity, method, interactive method, dictionary, didactic method, dictation, literacy

KIRISH

Bugungi kunda yurtimizdagи ta'lif tizimida jiddiy yangilanishlar boshlab yuborildi. Ushbu yangilanish va o'zgarishlarning bosh maqsadi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Bu maqsad jamiyatimiz oldida yuzaga kelgan kuchli ijtimoiy ehtiyoj zamirida tug'ildi. O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lif bosqichlarida ta'lif va tarbiya jarayonini davr talablari asosida, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarga mos ravishda uzlusizlik va uzviylik tamoyillariga rioya qilgan holda yangi pedagogik tehnologiyalar darajasida, shuningdek, axborot tehnologiyalaridan foydalanib tashkil etishning mazmuni, shakllari, metod va usullarini izlash, ishlab chiqish, milliy pedagogika fanining talablari asosida adabiy ta'lifning har bir bosqichida ro'y bergan o'zgarishlarni amaliyatga tatbiq etish yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashninhg muhim omillaridan hisoblanadi. Ta'lif rus tilida olib boriladigan maktablar, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarida o'zbek tili darslarida so'z boyligini oshirishni o'rganish ana shu yo'sinda yo'lga qo'yish talab etiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Til o‘qitish va uning o‘ziga xos jihatlari ko‘pgina metodist olimlar tomonidan o‘rganilgan va bu ish hozir ham yangi usul va izlanishlar bilan boyib bormoqda. Masalan, o‘zbek tilini o‘qitishning o‘ziga xos jihatlari S.Matchonov, X.G‘ulomova, Q.Abdullayeva, M.Usmonbekova, M.G‘ulomov, A.Yo‘ldoshev kabi bir qator olimlar tomonidan o‘rganilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O‘quvchilarining kreativligini oshirishda asosiy ustuvor usullardan ongli o‘qitish, nutq madaniyatini o‘stirish, yozma va og‘zaki nutq mashqlarini uyg‘un holatda olib borishdir. O‘z navbatida lug‘atlar bilan ishlash ham ta’lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chunki lug‘atlar bilan ishlash o‘quvchilarda kuzatuvchanlik qobillyatini yuzaga chiqaradi, ularning nutq madaniyatini yuksaltiradi, fikrlash va dunyoqarashini kengaytiradi, so‘z boyligini orttiradi, o‘quvchilarda savodli yozuv malakasini takomillashtiradi. Shu boisdan maqolada o‘quvchilarda lug‘atlar bilan ishlash ko‘nikmasini shakllantirish , uning yo‘l-yo‘riqlari muhokama qilinadi.Uning asosiy yo‘nalishlari va usullari tavsiflab, misollar orqali izohlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

So‘z tilning ma’no bildiradigan asosiy birligi hisoblanadi. So‘z va so‘z birikmasi aniq narsalarni, mavhum tushunchalarni va hissiyotni ifodalaydi. Tilda mavjud bo‘lgan barcha so‘zlarning yig‘indisi lug‘atlar tarkibida jamuljam. Kishining lug‘at boyligi qanchalik boy va rivojlangan bo‘lsa, uning nutq ham shunchalik boy bo‘ladi, o‘z fikrini aniq va ifodali bayon etishga keng imkoniyat yaratiladi. Shuning uchun lug‘atning boyligi, xilma- xilligi, harakatchanligi metodikada nutqni muvaffaqiyatli o‘stirishning muhim sharti hisoblanadi. O‘quvchi lug‘atining boyishiga birinchi navbatda, uni o‘rab ilgan muhit, tabiat, kishilarning hayoti, o‘qish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan bo‘lgan muloqotlari asosiy manba vazifasini bajaradi. Bola tabiat va insonlar bilan munosabatda bo‘lishi natijasida so‘z, ibora, tasviriy ifoda, maqol, hikmatli so‘zlarni o‘rganadi, ularni o‘z so‘zlariga aylantiradi.

O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tilini o‘qitishda lug‘atlar ustida ishlashning umumiy yo‘l- yo‘riqlari, yo‘nalishlari, manbalari haqida metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Lekin shuni aytish joizki, lug‘atlar ustida ishlash uchun maxsus darslar ajratilmaydi. O‘quvchilar barcha predmetlarni o‘rganishda, asosan, darslik materiallarini o‘rganish bilan bog‘liq holda olib boradi. O‘zbek tili darslarida lug‘at ustida ishlash o‘quvchilar nutqini o‘stirishga, yozma savodxonligini shakllantirishga, so‘z boyligini boyitishga nutq madaniyatini yuksaltirishga qaratilganligi sababli bu ish har bir o‘quv jarayonida davom ettirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Lug‘at imlo savodxonligini oshirish, so‘z boyligini kengaytirishning muhim manbai hisoblanadi. Shu bois darslar davomida o‘quvchilarning nutqiy kreativligini oshirishning muhim vazifalaridan biri lug‘at ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, uning asosiy yo‘nalishlarini ajratish va asoslash, o‘quvchilarning lug‘atini boyitish jarayonini boshqarish hisoblanadi. Lug‘atlardan foydalanish va ular ustidan ishlash malakasini shakllantirish birinchi ularda ehtiyojni tarbiyalashdan boshlanadi. Sababi ehtiyoj bo‘lmasa, o‘quvchi lug‘atlarga murojaat qilmaydi. Ma’lum bir so‘zning imlosi, ma’nosи, ma’nodoshi, zid ma’nolisi, uyadoshini bilish zaruriyati ehtiyojni vujudga keltiradi.

Shunga muvofiq tarzda o‘quvchilarining lug‘atlar ustida ishlash jarayonini shakllantirish uchun quyidagi vazifalar bajarilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Lug‘at diktantlaridan dars jarayonida samarali foydalanish.

Lug‘atni boyitishda turli lug‘atlar juda foydali qo‘llanma sanaladi. Dars davomida 5-6 daqiqa lug‘at diktant o‘tkazilsa, bu ham o‘quvchilarning imlo savodxonligiga, ham so‘z boyligining o‘rtishiga sabab bo‘ladi. Buni amalga oshirish uchun o‘qituvchi darsdan tashqari vazifa qilib o‘quvchilarga 30-35 ta so‘zni lug‘at tarzda topshiriq qilib beradi. O‘quvchilar ularni yodlab, uning yozilishini o‘rganib kelishlari kerak. O‘qituvchi esa mazkur so‘zlardan lug‘at diktantini oladilar. O‘qituvchi ma’lumot uchun ham, material tanlash uchun ham turli lug‘atlardan foydalanishi mumkin.

2. Badiiy asar o‘quvchilar nutqini oshirish uchun eng muhim manbalardan biri sanaladi. O‘qituvchi haftaning biror darsi davomida o‘quvchilarga turli she’rlar yoki hikoyalarni o‘qittirib, notanish bo‘lgan so‘zlarni ajratib, uning ma’nosini tushuntirishi va kelasi badiiy asarni o‘qilguncha bu so‘zlarni yozdirib yodlattirsa , bu o‘quvchilarning so‘z boyligini yanada oshishi bilan bir qatorda ularni qo‘llash malakasini ham ma’lum ma’noda shakllantiradi.

3. Lug‘atlarni faollashtirish ham samarali yo‘l sanaladi. Bunda o‘quvchilar ma’nosini tushunadigan, ammo o‘z nutqida ishlatmaydigan nofaol lug‘atidagi so‘zlarni faol lug‘atiga o‘tkaziladi. Buning uchun shu so‘zlar ishtirokida so‘z birikmasi va gaplar tuziladi, ular o‘qiganlarni qayta hikoyalash, suhbat, bayon va inshoda ishlatiladi.

4.Darsdan tashqari mashhg‘ulotlarni ham o‘tkazish lug‘atlar o‘rganishda eng asosiy omillar bo‘lib xizmat qiladi. Bunda o‘quvchilarni turli ekskursiyalarga olib chiqish juda katta ahamiyatkash etadi. Boisi, tabiat qo‘yniga, turli joylarga, muassasalarga ekskursiya vaqtida bolalar narsa va hodisalarini kuzatish bilan ko‘pgina yangi nom va iboralarni o‘rganadilar. Bu ekskursiyalar yuzasidan o‘tkazilgan suhbat vaqtida ularning bilimi chuqurlashtiriladi,ayrim so‘zlar ma’nosiga aniqlik kiritib boriladi.

4. Dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali ham lug‘atlar bilan ishlash ko‘nikmasini oshirish mumkin. Buning uchun o‘qituvchi dars davomida

video va audio matnlardan foydalanishi mumkin. Buning uchun biror matn qo‘yib berilib, keyin o‘quvchilardan bu matnni kitoblardan foydalanmagan holda gapirib berishlarini so‘rash va matnda uchragan notanish so‘zlarning ma’nolarini tushuntirib berishni so‘rash orqali o‘quvchilarda yangi lug‘atlar boyligi shakllantirilishi mumkin.

5. Turli xil didaktik o‘yinlardan foydalanish orqali ham o‘quvchilarda lug‘atlar boyitishga erishish mumkin. Didaktik o‘yinlar o‘quvchilarning kreativligini hamda zukkoligini o‘stiruvchi eng asosiy vositadir. Shuningdek lug‘atlar ustida ishlash jarayonida ham didaktik o‘yinlardan foydalanish mumkin. Masalan: “Mosini toping” o‘yini ham o‘quvchilarda lug‘atlar bilan ishlashda samarali usullardan sanaladi. Bunda o‘qituvchi doskaga so‘zlarning ma’lum guruhlarini va ularga mansub so‘zлarni yopishtiradi. O‘quvchilar guruh bo‘lib ishlash jarayonida so‘zлarni o‘ziga mos bo‘lgan guruhlarga kiritishi lozim bo‘ladi.

6. So‘z ma’nosini shu so‘zning ma’nodoshi yordamida tushuntirish orqali o‘quvchilarning lug‘at boyligi yanada ortadi.

Shuningdek, so‘z ma’nosini lug‘atdan va darslikda matn ostida berilgan izohdan foydalanib har dars davomida tushuntirib o‘tish, misollar berish o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

7. Mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi so‘zlarning ma’nosini tushuntirishda barchaga tanish bo‘lgan qahramonlar yoki o‘quvchilar o‘rgangan badiiy asardan axloqiy fazilatga ega bo‘lgan asar qahramonining qilgan ishlari orqali mazkur tushunchaga misollar berilishi orqali tushuncha oydinlashtirilishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, dars davomida lug‘atlar bilan ishlash, o‘quvchilarga so‘z ma’nosini tushuntirish o‘quvchilarning lug‘at boyligini orttiradi, dunyqarashini kengaytirib, ularning kreativligini oshiradi. Shu bois lug‘at ustida ishlashni barcha darslarda reja asosida izchil olib borish zarur. Maktab oq‘uvchilari uchun izohli, imlo lug‘atlarining to‘liq yaratilmaganligi lug‘at ustida olib boriladigan ishlarni to‘g‘ri uyushtirishda ba’zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. O‘qituvchi lug‘at ishini qat’iy reja asosida izchil amalga oshirsa, o‘quvchilardan ortiqcha mehnat talab qilmaydi. Bunga erishish uchun o‘qituvchidan katta ijodiy va pedagogik mahorat talab qilinadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Matchonov S. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish. –T.: “Yangiyo‘l polygraph service”, 2008
2. Tursunova D.T. Rus tilini chet tili sifatida o‘qtishda og‘zaki va yozma nutqning til va nutq aspektlari. <https://researchgate.net/publication/357866707>. 6-bet
- 3.“O‘zbek tili fanidan lug‘atlar ustida ishlash orqali talabalarning so‘z boyligini oshirish” metodik ko‘rsatmasi.- Toshkent, 2005
4. Yo‘ldoshev A. O‘zbek tilini o‘qitish(Ta’lim rus tilida olib boriladigan maktablarda).Toshkent-2015, 3-bet